# O‘qish savodxonligi

**II qism**

1



novda

edutainment

UO‘K 808.545(075.3)
KBK 74.202.5ya72
A 38

**Aydarova U. B., Azizova N. K.**
**O‘qish savodxonligi.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. / U.Aydarova, N.Azizova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b.

**Taqrizchilar:**

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahar 222- umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

# Shartli belgilar:



Yodda saqlang



Savollarga javob bering



Juftlikda ishlang



Izohli lug‘at



Diqqat bilan o‘qing



Gaplarni to‘ldiring



Bu – qiziq!



Topshiriqni bajaring



Uyga vazifa



Tinglang

ISBN 978-9943-9709-2-2

© U.B. Aydarova, N.K. Azizova
© “Novda Edutainment”, 2023

# V bo‘lim.
# U – kim, bu – nima?



## Buyuk ajdodlar – bizning faxrimiz

Bizning yurtimiz buyuk alloma, sarkarda, shoir va mutafakkirlar vatanidir. Biz Vatanimiz nomini dunyoga tanitgan Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarning avlodlarimiz.



**Al-Xorazmiy – matematika fani asoslariga xissa qo'shgan.**

**Sharqda dastlabki globuslardan birini bobomiz Abu Rayhon Beruniy yaratgan.**





**Abu Ali ibn Sino bobomiz tibbiyot ilmiga ulkan xissa qo'shgan.**

Bobolarimiz qilgan olamshumul ishlarni biz ham davom ettirishimiz mumkin. Biz ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz!

**Savollarga javob bering.**

1. Matnda qaysi allomalarimizning nomi tilga olingan?
2. Ular haqida yana qanday ma'lumotlarni bilasiz?
3. Ajdodlarga munosib avlod bo'lishimiz uchun nima qilishimiz kerak?

**Izohli lug'at:**

*ajdod* – ota-bobolar

**Topshiriqni bajaring.**

1. Matnning har bir qismini alohida o'qing. Ularga sarlavha toping.
2. Vatanimiz nomini dunyoga tanitgan ajdodlarimiz nomi tilga olingan gapni topib o'qing.

**Yodda tuting!**

**Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.**

*Abu Rayhon Beruniy*

**Matnni o'qib, mazmunini so'zlab bering.**

Amir Temur – sarkarda, adolatli shoh, davlat arbobi bo‘lgan. Bobomiz buyuk davlatga asos solgan. Ona yurtimiz Turkiston diyorini butun dunyoga tanitgan.

## Temur bobom

Amir Temur
Ulug‘ bobo,
So‘zi durga
To‘lig‘ bobo.

U arbob ham,
Lashkarboshi,
Sevgan elning
Keksa-yoshi.

To bor dunyo,
To bor hayot,
Temur bobom
U – barhayot.

*Erkin Qambar*



**Savollarga javob bering.**

1. She'rda Amir Temur bobomiz qanday so'zlar bilan ta'riflangan?
2. *"So'zi durga to'liq bobo"* deganda nimani tushundingiz?
3. Amir Temur bobomiz ona yurt rivoji uchun qanday xizmatlar qilgan?
4. Sizningcha, bobomizning qaysi xislatlari olamga mashhur bo'lishida yordam berdi?

**Izohli lug'at:**

*sohibqiron* – qudratli hukmdor, Amir Temurning sharafli unvoni

*shon* – erishilgan hurmat, obro'

**Amir Temur o'gitlarini o'qing.**

- **Yaxshini yomon kunda sina.**
- **Birliksiz kuch bo'lmas.**
- **Kuch – adolatda.**
- **Qo'rqmasang, yov qochar.**



**She'rni yod oling.**

**Tasavvur qiling, do'stingiz boshqa joyga ko'chib ketdi.**
**Siz unga zarur ma'lumotni qanday yetkazgan bo'lardingiz?**

## Xabarlarni yetkazamiz

Hozirgi kunda uyali aloqa vositalari orqali dunyoning xohlagan burchagiga xabar jo'nata olasiz. Mobil telefonlar yaratilmasidan oldin odamlar bir-biri bilan qanday xabarlashgan deb o'ylaysiz?

Bilasizmi, bunda odamlarga xat tashuvchi kabutarlar yordam bergan. Kabutar o'z yo'nalishini yo'qotmasdan uzoq joylarga xabar olib borishga o'rgatilgan.

Shoshilinch ma'lumotlarni esa otliq xabarchilar yetkazishgan. Ularni choparlar deb atashgan.

Keyinchalik odamlar xat yozib, uni xatjildlarga solishgan. Pochta xizmati orqali kerakli manzilga jo'natishgan. Bu xatlar ma'lum vaqt ichida egasiga yetib borgan.

Olimlar telegraf qurilmasini ixtiro qilgandan so'ng yozma xabarlar manzilga tez yetib

borgan. Telefon yaratilgach, xabarni og‘zaki yetkazish imkoni paydo bo‘ldi.

Siz xabarlarni qanday jo‘natasiz?



# MUNDARIJA

**V bo'lim. U – kim, bu – nima?**
Ajdodlar – bizning faxrimiz ........ 4
Olamga mashhur Sohibqiron ........ 6
Siz xabarni qanday jo'natasiz? ........ 8
Yulduzlar siri ........ 12
Yulduzlar ilmini o'rgangan bobom ........ 15
Koinotga parvozlar ........ 18
Zahiriddin Muhammad Bobur ........ 21
Suv tomchisining sayohati ........ 23
Ajoyib so'zlar ........ 25
Bo'lim yuzasidan takrorlash ........ 27
**VI bo'lim. Xalq og'zaki ijodi – behisob xislat koni**
Ertaklar – yaxshilikka yetaklar ........ 30
Ertaklardan ol saboq ........ 33
Zukko bo'lgin, bolajon ........ 35
Rivoyatda ibrat bor ........ 37
Qo'shiqqa bo'lamiz jo'r ........ 39
Bo'lim yuzasidan takrorlash ........ 41
**VII bo'lim. Qanday yaxshi, bolalar Go'zal xulq, orastalik**
Odobning boshi – til ........ 44
Kiyinish odobi ........ 46
Odobli bola ........ 49
Rostgo'ylik – inson ko'rki ........ 51
Orastalik qanday soz ........ 53
Yomon odatlardan saqlaning ........ 55
Maqtanchoq bo'lmang ........ 57
Vaqtdan unumli foydalaning ........ 59
Yaxshilik qilish – odob-axloqdandir ........ 62
Bo'lim yuzasidan takrorlash ........ 64
**VIII bo'lim. Yoz – o'tadi soz**
Yoz – naqadar soz ........ 68
Mevalar g'arq pishgan mahalda ........ 72
Quvnoq o'tsin go'zal yoz ........ 75
O'tilganlarni mustahkamlash ........ 77

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi. Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**1-sinf o‘qish savodxonligi II qism kitobini to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@Maktablar_uchun_hujjatlar**

Maktablar uchun hujjatlar

ADMIN Zokirjon 90-530-68-66

**DIQQAT!!!**

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**
**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet veb-saytlarga joylamang.**
**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**